

CHET TILI O’QITISHDA YANGI SO‘ZLAR BILAN ISHLASH

*Muhayyo Ahmedova, ADChTI, katta o‘qituvchi
O‘ktamjonova Azizaxon ADCHTI talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tili o‘qitishda so‘z boyligini oshirish uchun mashqlar tanlash va ularning o‘rganish mahoratiga asosan kerakli metodlar tanlash haqida gap boradi.

Аннотация: В данной статье говорится о выборе упражнений для увеличения словарного запаса при обучении иностранному языку о выборе необходимых методов с учетом навыков обучения

Annotation: This article talks about choosing exercises to increase vocabulary when teaching a foreign language and choosing the necessary methods taking into account learning styles.

Kalit soʻzlar: metod, didaktika, leksik birliklar, fonetik shakl, Grammatik shakl, leksik mashqlar

Ключевые слова: метод, дидактика, лексические единицы, фонетическая форма, грамматическая форма, лексические упражнения

Key words: method, didactics, lexical units, phonetic form, grammatical form, lexical exercises

Hozirgi kunda barcha rivojlanayotgan taʼlim muassalarining diqqat markazida taʼlim jarayonini sifatini toʻla innovatsion yoʻnalishda oʻzgartirish va shu bilan birga chet tillar oʻqitish samarasini oshirish turibdi. Oʻtgan asrdan buyon metodologiya va didaktika, tilshunoslik va ruhshunoslik kabi fanlar oʻzini eʼtiborini oʻzaro bogʻliq boʻlgan muammolar koʻlamiga qaratgan va bularning eng asosiysi turli xil yoshdagi va taʼlim darajasi turli boʻlgan talabalarga chet tilini oʻqitish muammosidir.

Muammolarining eng muhim metodlaridan biri talabalarga soʻz oʻrgatish muammosidir. Soʻzlarni faollashtirish bu alohida jarayon boʻlib, baʼzi bir soʻz va iboralarni egallab, yodda saqlashi uchun maxsus mashqlar bajarilishi zarurdir va bu yodda saqlab qolish jarayonini mustahkamlaydi. Talabalarning soʻz egallash amaliyoti ularning soʻz yasash mahorati va uni mustahkamlashga yoʻnaltirilgan mashqlar yordamida amalga oshiriladi. Tuzilishi boʻyicha mashqlar ikki kategoriyaga boʻlinadi: soʻzlarni yodda saqlab qolishga moʻljallangan mashqlar, yaʼni fonetik va grammatik shakllari maʼno jihatidan birlashib uzoq muddatga yodda saqlanib qolishga qaratilgan va maqsadi leksik birliklarda sintagmatik va paradigmatic aloqalarni kuchaytirish boʻlgan mashqlardir.

Biz bilamizki, soʻz aniq bir vaziyatga taalluqli boʻlsa, fikr va his-tuygʻularni ifodalash zarurati boʻlganda oson egallanadi, yangi soʻzlar taqdimot etilgandan soʻng dastlabki mashgʻulotlar maxsus tashkil qilingan oʻzaro muloqot, yaʼni vaziyatli nutqga oid mashqlarda namoyon boʻladi. Bu mashqlar (CLT) oʻzaro aloqalar boʻlimida oʻz aksini topadi.

Tasavvur qilib mashq qilish talabalarga soʻzni tinglab va koʻrinib oʻrganish orqali haytatomuz holat yaratishga imkon beradi va bu oʻz-oʻzidan nutq mexanizmini ishga solib, soʻzning uzoq muddatga yodda saqlanib qolishiga olib keladi.

Oliy taʼlimlarda chet tili oʻrgatishning kommunikativ va amaliy maqsadiga koʻra mashqlarning xilma-xilligi uch xil koʻrinishda namoyon boʻladi.

1. Kommunikativ boʻlmagan mashqlar: mashqlarning bu turlari turli nutq faoliyatlarida lingvistik materialni tushunish va ongli ravishda oʻrganish maqsadida namoyon boʻladi.

Mashqlarning maqsadi chet tili kommunikativ funksiyalari va chet tili oʻqitishning kommunikativ malakalarini (listening, speaking, reading, writing) amalda qoʻllashdir.

Ogʻzaki nutq mashqlari koʻpincha ijodiy mashqlardir va bu turli darajadagi bilimga ega talabalar uchun jiddiy fikr talab qiladigan vazifadir. Bu jarayonning asosiy prinsipi - pragmatizm va motivatsiyadir.

Passov E.I va Kuznetsova E lar bu mashqlarni uchga boʻlganlar:

Mazmunga oʻzicha oʻzgarish beradigan mashqlar: soʻzlab berish, qisqa esseylar, tarjima qilib gapirish, kuchaytirib gapirish va boshqalar;

1) Tasvirlovchi mashqlar: kichik elementlar tasavvurni tasvirlash, tasvirlovchi hikoya, sharhlar.

2) Ifodalovchi mashqlar, munosabat va baholashni ifodalash: oʻzaro bahslar va sharh berish.

3) Maxsus mashqlar – mulokatga oʻxshash mashqlar, bular tez suratda ishlashga imkon beradi, ular ijrosi boʻyicha odatda ruhiy sodda holatlardir. Tabiatan bu xil mashqlar ogʻzaki boʻladi; metodologik moʻljal koʻrinishida bir til aspektini ifodalashi mumkin. Bularga misollar:

fikr almashish mashqlari, vaziyatli suhbatlar, talabalarning savollari, ommaviy axborot konferensiyasi, intervyular ba’zi xollarda “Men bilan aloqaga kiring” (Contact me) mashqlaridir.

3. Vaziyatli nutq mashqlari yoki vaziyatli kommunikativ mashqlar.

Bu xil mashqlarning xarakterli jihati, ular til materialini ta’lim yoki tabiiylikka taqlid qilvchi vaziyatli muloqotlarda foydalanishga yo’l beradi. Vaziyatli muloqot mashqlari ayni vaziyatga tegishli bo’lishi kerak, ya’ni o’qituvchining har qanday savoli va talabaning javoblari, sheriklarning aloqasi va ularning faoliyati vaziyatga tegishli bo’lishi kerak. Ular talabalarning diqqatini bahs ketayotgan mavzuning mazmuniga qaratgan bo’ladi. O’qituvchi bu holatda siyqasi chiqqan iboralardan qochishi kerak, u talabalar e’tiborini o’rganayotgan so’z iborasining vaziyatda qanday qo’llanishiga qaratish kerak.

Vaziyatli nutq mashqlarida talabalar to’laligicha o’qituvchining so’z va iboralarini taqlid orqali o’zlashtiri lishiga ham bog’liq; bu xil mashqlar o’rin alamashuvchi ham bo’lishadi, unda leksik birliklarning o’rin alamashirish orqali amalga oshiriladi; transformatsion mashqlarda mavjud leksik birliklarni boshqa turga aylantirish orqali amalga oshiriladi (masalan, majxul nisbat aniq nisbatga o’tkazilish orqali amalga oshiriladi);

Boshqa tur leksik mashqlar klassifikatsiyasiga binoan ular quyidagicha farqlanadi: 1) nutq faoliyatining turi bo’yicha so’zlar prodaktiv va reprodaktiv bo’ladi, ya’ni unumli va foydali natijaga ega bo’ladi. 2) so’zlarni egallanishiga ko’ra leksik maxoratning rivojlantirish darajalariga ko’ra farqlanadi. 3) leksik mashqlar aniq aspeklar yo’nalishiga ko’ra farqlanadi-fonetika, grafika va boshqalar. 4) mashqlar yo’nalishi bo’yicha nutq kommunikatsiyasining aniq turini yaratadi. 5) mashqlar ajratilgan so’zlar yoki gap va iboralardagi alohida so’zlar qanday ishlash ko’lamiga ko’ra farqlanadi. 6) ishlash jarayoni turiga ko’ra so’z o’rganilishiga ko’ra farqlanadi. 7) so’z mashqlari diqqatini yangi so’zlar o’rganishga yoki ularni qaytarishga qaratilishi bilan farqlanadi.

So’zlar bilan ishlash jarayonida har bir o’qituvchining xususiy prinsplari ham mavjuddir: darajaning o’sib borish ko’lamiga ko’ra bosqichma-bosqich maxoratning shakllanishi, faoliyat orqali mashqlarning o’xshash tomonlarini aniqlab va farqlash orqali, leksik, grammatik, fonetik va so’z turkumlari orqali mashqlarning almashuvi, o’qish va yozish mashqlari orqali so’z boyligini oshganligini tekshirib borish kabi kuzatuv natijalari har bir o’qituvchining o’z yo’nalishini olib kirishga sabab bo’la oladi.

Adabiyotlar:

1. Muhayyo, A., & Kurbanova, S. (2023). NOTE TAKING METHODS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(5), 88-89.
2. Umidjon, M. (2022). MATERIAL AND SPIRITUAL HERITAGE OF ANCESTORS SAMPLES IN STORAGE. *Confrencea*, 1(1).
3. Parthasarathy Ramanujam “Ready for reading” *English Teaching Professional* 2009
4. *Practical English Language Teaching: PELT Young Learners* By Caroline Linse, David Nunan. 2022
5. Ilhomovich, A. A., & Gulchiroy, X. (2023). ENGLISH AS A MOTHER TONGUE. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 1257-1259.